

YURTIMIZDA RUS TILINI FANINI O‘QITISHNING SAMARALI USULLARI

Kurganov Ravshan

*Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumani MMTB ga qarashli 13-umumta’lim maktabi rus tili
fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda rus tilini chet tili sifatida o‘qitish xususiyatlari haqida, xorijiy tillarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etayotganligi haqida, dars o‘tishda qiziqarli o‘yin va mashg‘ulotlardan foydalanib dars o‘tish haqida, bugungi kunda til o‘rganish har bir shaxs uchun muhimligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Yurtimiz, dars, samaradorlik, xususiyat, o‘rganish, o‘qitish, mashg‘ulot.

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etayotganligi sababli, tillarni nafaqat oliy ta’lim muassasalarida, maktablarda, shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida ham o‘rgatilmoqda. Darslarda o‘ziga xos usullar, qiziqarli metodlar bilan o‘tilmasa, o‘quvchilarni darsga jalb qilish biroz murakkab vazifaga aylanishi mumkin.

Agarda darslarda an’anaviy usullardan kechilsa, qiziqarli qilib olib borilsa bu nafaqat dars sifatini ta’minlaydi, shu bilan birga zerikishni oldini olib, passiv o‘quvchilarni ham darsda ishtirok etishga jalb qiladi.

Rus tilini o‘rgatish jarayonida bir qator qiziqarli o‘yinlar mavjud. Shuni aytib o‘tish joizki, bolalarga til o‘rgatishda shunday o‘yinlardan foydalanish kerakki, unda barcha o‘quvchilar birdek ishtirok etishsin hamda darsdan yangilik olishsin (masalan yangi lug‘atlar yodlab ketishi mumkin, har kuni shu jarayon takrorlansa, o‘quvchining lug‘at boyligi yuqori darajaga ko‘tariladi). O‘quvchilarga darsni grammatik tushunchalar bilan boshlash no‘rindir, ayniqsa kichik sinf o‘quvchilarini tezda zerikishiga sabab bo‘ladi. Natijada darsga bo‘lgan qiziqish so‘nishi mumkin.

Ular bilan hattoki salomlashish jarayonini ham noan’anaviy tarzda boshlash kerak, masalan, o‘qituvchi kirishi bilan darsni qandaydir salomlashishga oid ruscha qo‘shiq bilan boshlash (asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun motivatsion usuldir) usuli samarali usuldir. Shu tariqa dars davom etsa, o‘quvchilar dars davomida har bir topshiriqqa bo‘lgan e’tiborini yo‘qotishmaydi. Xattoki ular rus tili darslarini intizorlik bilan kutishadigan bo‘lishadi. Albatta, bularning barchasini o‘qituvchi tashkillashtirishi kerak va bu pedagogning zimmasida. Shunday ekan chet tilini o‘rganishni qiziqarli qilish uchun ba’zi o‘yin turlarini keltirib o‘tish mumkin [10-14].

Ingliz va rus tillari darslarining samaradorligini oshirish uchun „Rolli o‘yinlari“dan foydalanish mumkin. Bu o‘yinining afzallik tomonlari shundaki, bu vaziyatdan kelib chiqib o‘ynaladi. Bu o‘yin nafaqat fan o‘rganilishi uchun foydali, shu bilan birga aqliy qobiliyatni shakllantirishga ham yordam beradi. Bu o‘yinda mavzular tanlab olinib, bolalar dialoglar

tashkil qilishadi. Masalan, yo'lovchining taksini to'xtatgan jarayonidagi suhbat, yoki kiyim do'konlaridagi muloqotlar - bularning barchasini rus tilida ham gapirib, ham ko'rsatib berishadi. Aynan shu o'yinda, guruh bilan ishlash taktikasini qo'llasak ham bo'ladi, ya'ni o'quvchilarni guruhlariga ajratib turli mavzularni bo'lib berish. Bu holatda raqobatlashuv ham vujudga keladi. Raqobat-yuksalish mezonidir [15]. Topshiriqni yaxshi bajargan guruh rag'batlantirilsa, qolgan o'quvchilarning intilishi ham kuchayadi. Bundan tashqari, rus tili darslarini mazmunli o'tkazish uchun didaktik o'yinlardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir [16-19].

Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012 yil 13 dekabrda PQ 1875 – sonli qarori qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda chet tillarni o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Yurtimizda chet tillarni o'qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Chet tili darslarining o'qitilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumyevropa standart(ramka)lari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player,CD disklersiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir

paytning o‘zida so‘zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so‘z boyligi va uning ma‘nolariga e‘tibor berishi talab qilinadi. Ta‘lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish va o‘rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

— kompyuterlardan foydalanganda o‘quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko‘rishi ham eshitishi mumkin;

— chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;

— ancha an‘anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish;

— CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o‘quvchilarning chet tilini o‘rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo‘lishini ta‘minlaydi. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o‘rganish va o‘qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so‘zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. E-mail orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin. Ta‘lim jarayoniga zamonaviy — kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to‘g‘ri, unumli foydalanish, ular orqali o‘quvchida chet tiliga bo‘lgan qiziqishni orttirish, o‘qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta‘limning innavatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug‘iladi va talab ortadi. Bugungi kunda innavatsion ta‘lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo‘ladi va o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarining ortishi ham ta‘minlanadi. Ta‘lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiq qilish orqali ta‘lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o‘qitilishida turli rolli, harakatli o‘yinlardan foydalanish ham darsga ham til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni ortishiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o‘quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Rus tili madaniyati. (Darslik) Maslov V.G., 2010 - 160 b.
2. Rus tili va nutq madaniyati: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. L.A. Vvedenskaya, L.G. Pavlova, E.Yu. Kashaeva, Rostov n / a: "Feniks" nashriyoti, 2001. - 544 b.
3. Rus tili va nutq madaniyati / I. A. Dolbina, T. A. Karpinets, O.A. Saltakova; Kuzbas davlat texnika universiteti, 2011 .-- 63s.

4. XX asr oxiridagi rus tili. V.L. Vorontsova va boshqalar - M.: Rus madaniyatining tillari, 2009. - 478 b.
5. Zamonaviy rus tili. Darslik. Valgina N.S., Rosenthal D.E., Fomina M.I., 2002.nashr, 528s.